



TARBIYA DARSЛИGI ORQALI O'QUVCHILARDA SHAKLLANISHI KUTILADIGAN MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLAR

Dildora To'xtayeva

Denov tadbirdorlik va pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Boshlang'ich ta'lif "Tarbiya" darsligida o'quvchilarda o'rgatiladigan tushunchalar mazmun-mohiyati, ushbu darslikning o'quvchilar hayotida, ta'lif va tarbiyasidagi o'rni ahamiyati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarbiya, farzand tarbiyasi, ta'lif va tarbiya, odob, muvaffaqiyat.

ABSTRACT

This article talks about the content and essence of the concepts taught to students in the elementary education textbook "Tarbiya", the important importance of this textbook in the life, education and upbringing of students.

Key words: upbringing, child rearing, education and upbringing, manners, success.

Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo
najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir.

Abdulla Avloniy

Tarbiya insonga ona suti, ota o'giti, ajdodlar merosi, millat qadriyatlari va urf odatlari bilan birga singadi. Barchamizga ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Bolani tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va uning xulq atvorini bosqichma- bosqich nazorat qilish zarur. Bugungi kunda ta'lifning zamonaviy modeli jamiyatga erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirishga olib kelmoqda. U real maqsad va kuchli irodaga ega insonlarni ta'lif muassalaridan yetishtirib chiqish imkonini beradi. Ilg'or fikrlaydigan, qat'iyatli, o'z maqsadi sari harakat qiladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, muammoni ijobjiy yechadigan shaxslar jamiyat taraqqiyoti uchun kerak. Bunday shaxslar iqtisodiyotni rivojlantira oladi, jamiyatni boshqara oladi, hayotimizni o'zgartira oladi.

Uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta'lifdan bo'sh vaqtida amalga oshiriladigan qo'shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo'lib kelganligi sir emas. Tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar asoratlari




kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng

Tarbiya fanining huquqiy asoslari



muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 3-maydagi PQ 4307-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzlucksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarorining chiqishi bu millat kelajagi, millat ma'naviy taraqqiyoti uchun bir o'ziga hos tarixiy voqelik bo'ldi. Ushbu konsepsiya I — XI sinflar uchun "Odobnama", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Dinlar tarixi" fanlarini birlashtirgan holda "Tarbiya" fanini joriy qilindi.




O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida

PF-5538-son

Uzlucksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyası



TARBIYAFANINI O'QITISH DAN MAQSAD



Xalq ta'lim vazirligining 2020-yil 10-iyuldaggi 161-son
buyrug'i

Singapur davlati maktablarida o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida ularda yaxshi va yomonni farqlash, ma'nnaviy qadriyatlarni e'zozlash, o'zgalar bilan do'stlashish va ularning manfaatlarini o'zinikidan ustun qo'yish, jamoat ishlariga mas'uliyat bilan yondashish, jamoada ishlash va o'zgalar yordamini qadrash, Vatanni sevish, uning tarixini bilish va o'z mamlakati kelajagiga qat'iy ishonish, mamlakatni kelajakda boshqarish uchun qanday xislatlarga ega bo'lish kabi hayotiy ko'nikmalar shakllantiriladi.

Shu sababli ham, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidan andoza olgan holda maktablarda yangi fan sifatida "Tarbiya" (baxt va muvaffaqiyat sirlari) nomli darslik joriy etildi. Ushbu darslik oldingi eski "Odobnama" darsligi bilan mazmun jihatidan o'xshash hisoblanadi.



Darslikda teran fikrlashga undovchi topshiriqlar, yoki o'quvchilarni ijobiy xulosa chiqarishga undovchi hikmatlar va shunga o'xshash bir qancha mashq, hikoya, rivoyatlar mavjud.

Masalan, 3- sinf "Tarbiya" (baxt va muvaffaqiyat sirlari) nomli darslikning "Bilim va odob- inson ziynati" deya nomlangan 2- bobining ilk mavzusida quyidagi hikmat yozilgan: "Ey farzand, ilm mol(davlat)dan yaxshidur, ilm seni qo'riqlaydi, sen esa molni qo'riqlaysan. Molni sarflash bilan kamayadi, ilmni sarflash bilan esa ziyoda bo'laveradi." Birgina mana shu hikmatning o'zida olam- olam ma'no aks etilgan. Shu va shunga o'xshagan hikmatli so'zlar orqali bolalar dunyoqarashi kengayadi, ma'naviy olami rivojlanadi.

Tarbiya eng avvalo oiladan boshlanar ekan, biz farzandlarimiz kamolini, baxtsaodatini, iqbolini, buyuk inson bo'lib yetishganligini va hayot abadiyligini taminlaydigan ma'naviy qo'rg'on bo'lmish o'z oilamiz mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama tarbiyaning barcha turlariga etiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlar faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajadagi vazifamiz deb bilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son Farmoni.
2. Djenis Van Kliv. STEAM fanlar blokidagi fanlar kesimida 200ta tajriba. Qo'llanma. -Moskva: 1995-y.
3. Akbar, T. (2022). Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(8), 160-167.
4. Rustamovich, T. R. A. (2021). Islom Ta'limotlarda Shaxs Ma'naviyati Masalalari. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 186-190.
5. Ahmedov Sunnat 6-adabiyot darsligi. - Toshkent :"Ma'naviyat", 2017.-160b